

TADBIRKORLIKNING RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Djabarov Azizbek Yadgarovich*“University of economics and pedagogy”**NOTM Iqtisodiyot kafedrasи assistenti, Andijon*

Annotatsiya. Maqola mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mohiyati, shakllari va rivojlantirish imkoniyatlari, tadbirkorlik subhektlari erkin faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish masalalarini o’rganishga bag’ishlangan. Maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy tizimlarining tuzilmalari, faoliyatlari va daromadlarining mohiyati olib berilgan.

Kalit so’zlar: Tadbirkorlik subhektlari, tadbirkorlarning haq-xuquqlari, bozor iqtisodiyoti, ishbilarmonlik, foyda, ijtimoiy soxa, mulkka egalik, tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy isloxitlar, oilaviy tadbirkorlik, xo’jalik jamiyatlari, jamoaviy, unitar korxonalar.

Аннотация. Статья посвящена изучению сущности, форм и возможностей развития малого бизнеса и частного предпринимательства в нашей стране, созданию благоприятных условий для свободной деятельности субъектов предпринимательства. В статье раскрывается сущность структур, деятельности и доходов организационно-правовой системы малого бизнеса и частного предпринимательства.

Ключевые слова: Субъекты предпринимательства, права предпринимателей, рыночная экономика, бизнес, прибыль, социальная сфера, собственность, организационно-правовая система предпринимательства, социально-экономические реформы, семейный бизнес, хозяйствственные общества, коллективные, унитарные предприятия.

Abstract. The article is devoted to the study of the essence, forms and opportunities for the development of small businesses and private entrepreneurship in our country, the creation of favorable conditions for the free activity of business entities. The article reveals the essence of the structures, activities and income of the organizational and legal system of small business and private entrepreneurship.

Keywords: Business entities, rights of entrepreneurs, market economy, business, profit, social sphere, property, organizational and legal system of entrepreneurship, socio-economic reforms, family business, business societies, collective, unitary enterprises.

O’zbekiston o’z mustaqilligini qo’lga kiritgan dastlabki kunlaridan boshlab, jamiyatda tadbirkorlik ruhini qaror toptirib, shu asosda kishilarda mulkdorlik tuyg’usini uyg’otishga jiddiy ehtibor qaratildi. Mamlakatimizda tadbirkorlik

subhektlari erkin faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, xususan, byurokratik to'siqlarni olib tashlash, yuqori likvidli mahsulotlar, xom ashyo va materiallarni ochiq birja savdolarida sotishni tashkil etish, yangi tuzilayotgan tadbirkorlik subhektlarini ro'yxatga olishni osonlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sertifikatlashga doir qarorlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlarga keng imkoniyatlar ochib berdi.

Kichik biznesning ravnaq topishini rag'batlantirish va tadbirkorlarning haq-huquqlarini himoya qilish yo'lida davlat boshqaruv organlari bilan bir qatorda nodavlat va xalqaro tashkilotlar ham faoliyat olib bormoqda. Ular kichik korxonalar va yakka tadbirkorlarga amaliy yordam berish, jamiyatda tadbirkorlik harakatini kengaytirish hamda rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga munosib hissa qo'shishmoqda.

Tadbirkor va ishbilarmonlarning bunyodkorlik harakatlari mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lida olib borilayotgan islohotlarning ajralmas qismi sifatida o'zining ijobjiy samarasini bera boshladi. Eng asosiysi – keyingi yillarda iqtisodiy o'sish surhatlari barqaror tus oldi. Erkin iqtisodiyotning sinalgan tamoyillariga izchil amal qilinishi natijasida tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati oshdi.

"Mamlakatimizda har yili yaratilayotgan ish o'rinarining 90 foizi xususiy sektor hissasiga to'g'ri kelishini tahkidlash lozim. Hozirgi kunda ushbu tarmoqda 5 milliondan ziyod aholi, ayniqsa, yoshlarimiz mehnat qilayotgani uning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy hayotimizdagi o'rni ham ortib borayotganini ko'rsatadi. Shu boisdan ham agar biz iqtisodiyotimizni, ijtimoiy sohani yanada yuksaltiramiz desak, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratib berishimiz zarur".¹

Kichik biznesning shakllari kengayib, aholining mulkka egalik tuyg'usi uyg'ona boshladi. Bu hol kichik va o'rta mulkdorlar sinfining shakllanishiga keng yo'l ochib bermoqda. Kichik biznes va tadbirkorlik subhektlari, ularning faoliyati haqida gapirganda, ushbu subhektlar faoliyat olib borayotgan muhit – iqtisodiy, ijtimoiy va qonuniy tizim muhim ahamiyatga ega. Yahni, kichik biznes va tadbirkorlik subhektlari uchun mahlum iqtisodiy zona mamlakat misolida olinadigan bo'lsa, shu mamlakatda ushbu faoliyat bilan shug'ullanishning qonuniy asoslari qay darajada yo'lga qo'yilgan va u amaliyotda qanday ishlamoqda; mamlakatda kichik biznes va tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun iqtisodiy imkoniyatlar mavjudmi, ushbu faoliyat turlari bilan shug'ullanishning ijtimoiy jihatlari o'zida nimalarni mujassam etadi, degan savollar tug'ilishi tabiiy. SHunday ekan, yuqoridaagi faktorlarni o'z ichiga oluvchi

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг мамлакатимиз тадбиркорлари билан очик мулоқот шаклидаги учрашувда сўзлаган нутки. 20.08.2021 й.

O'zbekistondagi kichik biznes va tadbirkorlik muhitini o'rganish va uning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish ushbu sohani yanada chuqurroq o'rganish imkoniyatini yaratadi.

2023 yil 30 aprelda kabul kilingan O'zbekiston Respublikasi yangi Konstitutsiyasining 12-bob 66-67-moddalarida "Mulkdor o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkka o'z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mol-mulkdan foydalanish atrof-muhitga zarar yetkazmasligi, boshqa shaxslarning, jamiyat va davlatning huquqlarini hamda qonuniy manfaatlarini buzmasligi kerak. Davlat qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini tahminlaydi. Tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga va o'z faoliyati yo'nalishlarini mustaqil ravishda tanlashga haqli. O'zbekiston Respublikasi hududida iqtisodiy makon birligi, tovarlar, xizmatlar, mehnat resurslari va moliyaviy mablag'larning erkin harakatlanishi kafolatlanadi", deb yozilgan.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 18-moddasida har bir fuqaro mulkka egalik qilish, mulkni meros qoldirish, banklarda omonatlarga ega bo'lish, tadbirkorlik, dehqon (fermer) xo'jaligi va qonun bilan taqiqlanmagan boshqa faoliyatlar bilan shug'ullanish, yollangan mehnatdan foydalanish, yuridik shaxslarni tashkil qilish, savdo qilish va majburiyatlarda ishtirok etish, keltirilgan zarami qoplashni talab qilish, ish faoliyatini tanlash va boshqa huquqlarga egadir deb ko'rsatilgan. Demak, yuqorida keltirilganlarga asoslanib aytish mumkinki, mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish qonun bilan belgilab qo'yilgan.

Bugungi kunda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishda asosiy qonuniy hujjat — 2000 yil 25 mayda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni xizmat qiladi. Ushbu Qonunning asosiy vazifasi fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatida erkin ishtirok etishi va manfaatdorligi uchun kafolatlар hamda sharoitlar yaratishdan, ularning ishchanlik faolligini oshirishdan, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati subhektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Ushbu Qonunning 3-moddasiga ko'ra, "Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) — tadbirkorlik faoliyati subhektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat" deb ko'rsatilgan. Demak, ushbu tahrifga asosan, tadbirkorlikda 4ta asosiy tushuncha muhim o'rinnegi egallaydi, yahni tavakkalchilik, mulkiy javobgarlik, daromad olish va qonunda man etilmagan tashabbuskor faoliyatdir. O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subhektlari deb, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslarga aytildi. Kichik tadbirkorlik subhektlariga esa, yakka tartibdagi tadbirkorlar, mikrofirmalar, kichik korxonalar kiradi. Yakka tartibdagi tadbirkorlik - yuridik shaxs tashkil etmagani holda

jismoniy shaxs tomonidan tadbirkorlik faoliyatining amalga oshirilishi nazarda tutiladi. Yakka tartibdagi tadbirkorlik yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan xodimlarni yollash huquqisiz, mulk huquqi asosida o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida mustaqil ravishda amalga oshiriladi. Yakka tartibdagi tadbirkorlikni amalga oshirish uchun er-xotindan biri er-xotining bиргаликдаги mol-mulkidan foydalanадиган hollarda, agar qonunlarda, nikoh shartnomasi yoki er-xotin o'rtasidagi o'zga kelishuvda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, er (xotin)ning roziligi talab qilinadi.

Mikrofirmalarga:

- ishlab chiqarish tarmoqlarida band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan yigirma kishi;
- xizmat ko'rsatish sohasida va boshqa noishlab chiqarish tarmoqlarida, band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni ko'pi bilan o'n kishi;
- ulgurji va chakana savdo hamda umumi ovqatlanish tarmoqlarida, band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni ko'pi bilan besh kishi bo'lgan korxonalar kiradi.

Kichik korxonalarga esa:

- engil va oziq-ovqat sanoatidagi, metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochsozlik, mebelg' sanoati hamda qurilish materiallari sanoatida, band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni ko'pi bilan yuz kishi;
- mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqish va qayta ishlash, qurilish hamda boshqa sanoat, ishlab chiqarish sohalarida, band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni ko'pi bilan ellik kishi;
- fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohalari (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumi ovqatlanish hamda boshqa noishlab chiqarish sohalarida, band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni ko'pi bilan yigirma besh kishi bo'lgan korxonalar kiradi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va yanada rivojlantirish maqsadida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar ushbu sektorning milliy iqtisodiyotdagi o'rmini yanada mustahkamlash hamda samaradorligini oshirishga yo'naltirilmoqda. Ushbu islohotlar quyidagi chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi:

- tadbirkorlik subhektlarini ro'yxatdan o'tkazish tizimini osonlashtirish va ro'yxatga olish muddati hamda xarajatlarini kamaytirish;
- tadbirkorlik subhektlarining mahlum bir faoliyat bilan shug'ullanishlari uchun beriladigan ruxsatnomalar va litsenziyalar olish tizimini takomillashtirish;
- kichik biznes va tadbirkorlik subhektlarini soliqqa tortish tizimini takomillashtirish, yahni soliq yukini kamaytirish va soliq to'lashning soddalashtirilgan tizimini joriy qilish;
- kichik biznes subhektlarini tekshirish borasida olib borilayotgan islohotlar;

- moliyaviy institutlar va kichik biznes subhektlarining o'zaro munosabatlari;
- kichik biznes subhektlarining tashqi iqtisodiy operatsiyalarida (eksport va import) faol ishtirok etishini tahminlash;
- kichik korxonalarda kadrlar siyosatini takomillashtirish;
- kichik biznesni qo'llab-quvvatlashda nodavlat tashkilotlarning rolini oshirish va boshqalar.

SHakllanayotgan bozor iqtisodiyotining muhim belgisi xususiy biznes va tadbirkorlikdan iborat bo'lib, uning erkin rivojlanishi milliy iqtisodiyot taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyoti hamda jamiyat taraqqiyotida muhim o'rinni tutadi. Uning afzalligi bozor konhyunkturasi o'zgarishlariga tez moslashuvchanligi, kam mablag' talab etishi, yangiliklarni tez joriy etish va tarqatish imkoniyatlariga egaligida namoyon bo'ladi. SHu boisdan, kichik tadbirkorlik subhektlarining YaIMdagi ulushi Buyuk Britaniyada 50-53%, Frantsiyada 55-62%, AQSHda 50-52%, Yaponiyada 52-55%ni tashkil etadi. Bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes sohasida ish bilan band aholining 50-70%, hatto 80%ga yaqini faoliyat yuritadi.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga molikdir. Muxtaram yurtboshimiz "kambag'allikni qisqartirish, "mahallabay" ishlab, joylarda o'sish nuqtalarini aniqlash, ishsizlikni kamaytirish, aholi daromadlarini oshirish bo'yicha katta marralarni belgilab olganmiz. Bu borada davlat idoralari va xizmat ko'rsatuvchi barcha tashkilotlar tadbirkorlar bilan har kuni yaqin hamkorlikda ishlab, ularga amaliy yordam ko'rsatishi shart"²- deb bejiz tahkidlamagan. Yurtboshimizning ushbu so'zlaridan ko'rinish turibdiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali o'rta mulkdorlar tabaqasining qaror topishi mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik, iqtisodiy islohotlarni orqaga qaytarish imkoniyatlarini bartaraf etish kafolatining yaratilishini, kishilarda o'z ishiga mashuliyat bilan yondashishni tarkib toptiradi. Natijada kishilarda mehnatga qiziqish, manfaatdorlik va faollik ortadi.

O'zbekiston Respublikasi "Tadbirkorlik to'g'risida "gi Qonunga ko'ra kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakllari quyidalardan iborat:

- yakka tartibdagi mehnat faoliyati;
- ayrim fuqaro tomonidan yollanma mehnatni jalb etish asosida amalga oshiriladigan jamoa tadbirkorligi;
- bir gurux fuqarolar tomonidan amalga oshiriladigan jamoa tadbirkorligi;

² Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг мамлакатимиз тадбиркорлари билан очик мулоқот шаклидаги учрашувда сўзлаган нутки. 20.08.2021 й.

- yuridik shaxslar va fuqarolar o'z mulklari va mulkiy huquqlarini birlashtirish asosida amalga oshiriladigan xamkorlikdagi tadbirkorlik.

Ayni vaktda, tadbirkorkorlik faoliyatini amalga oshirish maksadida tadbirkorlik subhektlari, yahni tadbirkorlik tashkilotlari (korxonalar) tuziladi. O'zbekistonda tadbirkorlik tashkilotlarini tuzish, ularning faoliyat ko'rsatishi, qayta tashkil etish va tugatishning umumiyligi, huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy asoslari O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasidagi korxonalar to'g'risida "gi Qonuni bilan tartibga solinadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy tizimida yakka mehnat faoliyati xususiy tadbirkorlik faoliyatining eng oddiy shakli bo'lib, ayni vaqtda mamlakatimizda anhanaviy qadimgi bir qator soxalarda g'oyat rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Yakka mehnat faoliyati xunarmandchilik va oilaviy mehnat anhanasi bilan chambarchas bog'liqdir. Yakka mehnat faoliyatining ommaviyligi qonun xujjalarda uni amalga oshirishning eng soddalashtirilgan tartiblarida belgilangan. Chunonchi, yuridik shaxs xosil qilmay, qonun va xujjalarda ruxsat etilgan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar faoliyati O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslardan ro'yxatdan o'tkazish to'lovini olish va ruyxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Qonunga muvofiq amalga oshiriladi. SHuningdek, litsenziya asosida yo'l qo'yiladigan yakka tartibdagisi xususiy tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari (yakka shifokor(vrach)lik, farmatsevtika va boshkalar) Vazirlar Maxkamasining qarorlari va maxsus nizomlari bilan tartibga solinadi.

"Oilaviy tadbirkorlik munosabatlarini tartibga solish maqsadida 2012 yil 26 aprelda "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi. Unda oilaviy tadbirkorlik kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ustivor shakli sifatida faoliyat yuritishning asosiy qoidalari jamlangan.

Oilaviy tadbirkorlik - oila ahzolari tomonidan tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyatidir. Oilaviy tadbirkorlik o'z ishtirokchilarining ixtiyoriyligiga asoslanadi. Oilaviy tadbirkorlik yuridik shaxs tashkil etgan yoki tashkil etmagan holda amalga oshirilishi mumkin.

Yuridik shaxs tashkil etgan holda amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakli oilaviy korxonadir"³.

Oilaviy korxona uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiyligi mol mulk shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol

³ Ўзбекистон Республикасининг "ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК ТЎҒРИСИДА" ги Конуни, 26.04.2012 йил.
ЎРҚ-327-сон. 3-модда.

mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subg'ektidir. Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi. Oilaviy korxona tadbirkorlik subg'ektlarining tashkiliy huquqiy shakllaridan biridir. Oilaviy korxona ishtirokchilarining va uning yollanma xodimlarining umumiyligi soni kichik tadbirkorlik subg'ektlari xodimlarining qonun xujjatlarida belgilangan o'rtacha yillik sonidan ko'p bo'lishi mumkin emas. Bunda oilaviy korxona ishtirokchilarining eng kam soni ikki kishidan kam bo'lmasligi kerak.

Oilaviy korxona ishtirokchilari sifatida oila boshlig'i, uning xotini(er), bolalari va nabiralari, ota-onasi, mehnatga layoqatli yoshga to'lgan boshqa qarindoshlari (bolalari va nabiralarining erlari (xotinlari), tug'ishgan hamda o'gay aka-uka va opasingillari, ularning erlari (xotinlari) hamda bolalari, tog'a va amaki hamda amma va xolalari) oilaviy korxona ishtirokchilari bo'lishi bo'lishi mumkin.

Ayni vaqtida maxsulotlarni tayyorlash va sotish bilan shug'ullanuvchi xususiy tadbirkorlar muayyan majburiyatlarni bajarishlari (jumladan, muntazam tibbiy ko'rnikdan o'tish) shart. Xususiy tadbirkor o'z faoliyatida yollanma mehnatdan foydalansa, u yuridik shaxs hisoblanadi va tadbirkorlikni O'zbekiston Respublikasining "Korxonalar to'g'risida "gi, "Tadbirkorlik to'g'risida "gi, "Mulkchilik to'g'risida " gi qonunlari va boshqa mehyoriy xujjatlar asosida amalga oshirishga majbur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvda so'zlagan nutqi. 20.08.2021 y.
2. G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. - T.: SHarq, 2002. 324 b.
3. Do'stjonov T.D., Salaev S.K. "Iqtisodiyot va tadbirkorlik asoslari". O'quv qo'llanma. – Toshkent.: Iqtisodiyot-moliya, 2006. - 320 b.
4. Salaev S.K. "Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida kichik va o'rta biznes: muammolar, tahlillar va istiqbollar". -Toshkent.: Fan, 2002. – 128 b.
5. Salaev S., Allanazarov B. "Biznes-etiket". - Urgench.:UrDU, 2001 241 b.
6. "Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning amaliy asoslari". - Toshkent.: TIT', OSCE, 2004. - 12-17 betlar.
7. O'lmasov A., Vahobov A. "Iqtisodiyot nazariyasi". Darslik. -T.: SHarq, 2006. – 386 b.
8. Qosimova M.S. va boshqalar. "Kichik biznesni boshqarish". -Toshkent.: O'qituvchi, 2003. - 29-33 betlar.